

PEDAGOGLARNING KASBIY KOMPITENTLIGINI RIVOJLANTIRISH BUGUNGI KUNNING MODELIDIR

Xoshimova Laziza Akbar qizi,
Jizzax davlat pedagogika instituti
magistratura bo'limi talabasi

Zamonaviy sharoitlarda jahon fani va innovatsiya faoliyatining yutuqlaridan keng foydalanish jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirishning, mamlakatning munosib kelajagini barpo etishning muhim omili bo'lib bormoqda.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida interfaol usullar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan kiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda.

Mamlakatimizda ta'lim tizimining moderinizatsiya qilinishi, ta'lim muassasalarida shart-sharoitlar, yuqori malakali mutaxasssilarga bo'lgan ehtiyoj va talabning o'sib borishi nafaqat oliy ta'lim muassasalari balki faoliyati samaradorligida ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning innovatsion faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirib borishda bugungi kunda muhim muammolarni bartaraf etishga qaratilgan talablardan biri, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bu o'z navbatida pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlariga ijodiy yondashuvni talab qilmoqda. Ya'ni, pedagoglarning bilim, ko'nikma va malakalari, tajribasi, mahorati, omilkorligi asosida pedagogik jarayonlar samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlashi, pedagogik jarayon sub'ektlari (pedagog va talabalar) faoliyatini takomillashtirish yo'nalishlaridagi qarorlarni qabul qilishda mavjud vaziyatlarni, sub'ektlarning moyilligi, ehtiyoji va qiziqishini o'rganishi lozim.

Ta'limning maqsad va vazifalarini yangidan anglanishi, mehnat bozorini «bilimli» bitiruvchidan kompetentli bitiruvchi tomon o'zgarganligi ko'plab ilg'or xorijiy davlatlarning, ya'ni AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya, Xitoy, Singapur, Janubiy Koreya ta'lim tizimlarini kompetentlik yo'nalishida isloh qilishning asosiy sabablari hisoblanadi.

Islohotlar ta'limning maqsad va mazmunini, o'qitish usullari va texnologiyalarini, o'qish natijalarini kompetentlik talablariga asosan qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Bunda ilg'or ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga mos holda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyalarini yaratish pedagogik yo'nalishdagi tadqiqotlar orasida alohida ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorligini ijtimoiy va kasbiy muhim sifatleri nafaqat ta'lim muassasasidagi iqtisodiy va moliyaviy vaziyatga, balki bevosita bu sifatlarning talab etilganligi bilan bog'liqdir.

Innovator-pedagoglar bugungi kun ta'lim tizimining talabi bo'lib, kasbiy cho'qqilarga erishish uchun malaka oshirish, qayta tayyorlash kurslarida ta'limni chuqurlashtirish talab etiladi. O'qituvchilar o'zlarining innovatsion faoliyatini keng yoyish, yosh o'qituvchilarga o'rgatish, interfaol o'qitish usullarini ochiq darslarda namoyon qilishlari zarur.

Uzluksiz ta'lim jarayonida har bir o'qituvchi innovatsion usullardan foydalana olishi, uni amaliyotda tadbiq eta olishi lozim. Bu jarayonda o'qituvchiga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

- innovatsion texnologiya tushunchasini uning mazmun-mohiyatini bilishi;
- innovatsion texnologiyalarning ta'lim maqsadini amalga oshirishdagi o'rni va rolini bilishi;
- innovatsion texnologiyalarni fanlar bo'yicha qo'llash prinsiplarini bilishi;
- ta'limiy va ishchanlik o'yinlarini bilishi;
- muammoli rivojlantiruvchi ta'lim metodlarini bilishi;
- o'qituvchilarning mustaqil faoliyatlarini tashkil qilish va ta'minlash yo'llarini bilishi;
- o'qituvchilarning o'z ustida mustaqil ishlash mahoratini oshirish usullarini egallashi;
- ko'rgazmali o'qitish usullarini bilishi va egallashi.

Uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirishda ta'lim sifatini tubdan oshirish, jismoniy madaniyat o'quvchilari har bir darsga innovatsion yondashishlari kerak. O'qituvchi o'quvchilar bilan pedagogik hamkorlik qilishi, bunda asosan quyidagilarga e'tibor berishlari lozim:

- baholashning yangi usullarini topish;
- kasbiga bo'lgan qarashlarni o'zgartirish;
- pedagogik va kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish;

Innovatsion model asosida tashkil etiladigan o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- darsning samaradorligini ta'minlash;
- darsning mazmunan integrativ xususiyatga ega bo'lgan;
- ta'lim menejmenti hamda boshqaruv psixologiyasining roli va ahamiyati kengroq yoritilgan;
- pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda kompetentlik;
- innovatsion faoliyat va o'qituvchi shaxsining kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatleri.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga asoslanib, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- mustaqil ta'lim olishga va malaka oshirishga o'qituvchilarning psixologik va pedagogik tayyorgarligi darajasini ko'tarish;
- malaka oshirish mazmunida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning maqsadi va metodlari hamda ta'lim mazmunida psixologiyaning rolini kuchaytirish;
- malaka oshirish kurslarida o'qitishning oddiy axborotlar bilan ta'minlash shaklidan faol shakliga, ya'ni muammoli suhbat uslublari yordamida va pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi tushuncha va ko'nikmalarni shakllantirishga o'tish;
- kompetentli o'qituvchining shaxsiy pozitsiyasini ta'lim-tarbiya jarayonining sub'ekti sifatida shakllantirish.

Mamlakatimizda zamon talabiga mos yuksak intellektual salohiyatli, zamonaviy bilim va malakaga ega, yangicha dunyoqarash va mustaqil fikrli mutaxassislar tayyorlash uchun beqiyos imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu borada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari hisoblanmish – mediadan ta’lim jarayonida foydalanishning istiqbolli yo‘nalishlaridan keng foydalanish yo‘lga qo‘yilmoqda. Ta’lim jarayonida media, ya’ni, internet, televidenie, radio, kino, video, telefon va boshqa aloqa vositalari o‘z samarasini ko‘rsatmoqda.

Xulosa qilib aytganda, bugun Respublikamizning deyarli barcha oliy ta’lim muassasalarida kompyuterlar mavjud, shunday ekan barcha pedagoglar undan nafaqat informatika darslarida, balki barcha fanlarni o‘qitishda o‘rinli foydalanishlari lozim. Fanlarni o‘qitishda zamoniy pedagog va axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishni maqsadli yo‘lga qo‘ysak, ta’lim-tarbiya va dars sifati samaradorligini oshirishga erishamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azizxadjaeva N.N. “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat” Toshkent: T.D.P.U. 2003 y.
2. Saidahmedov N. “Yangi pedagogik texnologiyalar” (nazariya va amaliyot). Toshkent: Moliya nashriyoti. 2003 y.
3. Tolipov O‘.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot) Monografiya. Toshkent: “Fan”. 2005 y.